

Tilshunoslikda Linguomadaniy Xususiyatlarning O'rganilishi

Jo'rayeva Barno Nizomiddinova¹, Ashurova Nasiba Muhammadiyevna²

Annotatsiya: Bugungi kunda jahon tilshunosliida eng rivojlanib borayotgan va tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya hamda psixolingvistika sohalari chorraxasida tutashgan linguokulturologiya ko'plab olimlar e'tiborida va bu sohadagi ayrim qarashlar hamda munozaralar hali hanuz qizg'in muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Ushbu maqolada linguomadaniyatshunoslik va uning ayrim diqqatga sazovor xususiyatlari haqida ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: linguokulturologiya, etnopsixologiya, etnosotsiologiya, tilshunoslik, madaniyat, urf-odat, obyekt, predmet.

Linguokulturologiya terminining tarkibiy qismlari uchta so'zdan lot. "linguo"- "til" + "lot. cultura" "ishlov berish" + "yun. logos" "ta'limot" so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, u til va nutqda madaniyatning paydo bo'lishini, aks etishini o'rganadi. Linguokulturologiya olamning milliy manzarasi bilan ham bog'lanadi. "Olam manzarasi"- deb yozadi D.K.Baxronova,- bu subyektning atrof-olam, real yoki hayoliy voqelikka oid bilim va fikr-mulohazalari majmuidir.[1;25] Demak, aytish mumkinki, lingvokulturologiya fani muayyan xalqning madaniy hayoti, uning yutuq va kamchiliklari, yangilik va kashfiyotlarini o'rganish bilan shug'ullanadigan fandır. Lingvokulturologiya insoniyat umri davomida yashirib kelgan sirlari, ya'ni ma'lum bir millatga mansub lingvistik mavhum tushunchalarni ham o'rganadi. Uni ochish yoki javob topish orqali xalqning o'tmishdagi hatti-harakatlari, asrlar davomida erishgan yutuqlari haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Lingvist olimlar oldida turgan maqsad- tilshunoslikning ortida yashiringan, barcha odamlarga xos bo'lgan ichki va madaniy xususiyatlarni aniqlashdan iborat. Lingvokulturologiya tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, madaniyat, urf-odat va an'analarni o'rganuvchi fandır. U barcha xalqlar tillarida bir vaqtning o'zida aks etuvchi til va madaniyatning to'qnashuvi asosida shakllangan.

Fanning nisbatan yangiligi izlanuvchidan uni puxta o'rganish maqsadida uning maqsadi, asosiy tushuncha va tamoyillarini, tadqiqot usullarini, boshqa fanlar bilan aloqasini yaxshi tushunib olishni talab qiladi.

Ushbu fan nimani o'rganishni maqsad qiladi degan savolga S.T.Pazelidinova shunday deydi: "Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir." [2; 52] Tadqiqotchi fikrida davom etar ekan fanning obyekti va predmeti haqida ham qisqacha bayon etadi; "Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi". [3;52]

"Lingvokulturologiyani o'rganish orqali biz milliy qadriyatlar yordamida til (ong) shakllanishini urf-odatlar va madaniy shakllar; uni ma'lum bir jamiyatning qolipiga solib qo'yish; mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni ham o'rganishimiz mumkin." [4;292]

Bundan ko'rinib turibdiki, lingvokulturologiya fanida o'rganilayotgan til orqali, nafaqat mavjud tilga oid jihatlarni bilib olish mumkin, balki shuningdek, o'tmishda va hozirda ushbu tilda muloqot qilgan xalqlarning madaniy hayoti, urf-odatlari va qadriyatlari haqida ham tasavvurga ega bo'lish mumkin. Shunday ekan ta'kidlash joizki, lingvokulturologiya xalqlarni chuqurroq o'rganishda madaniyatshunoslik, tarix, psixologiya va etnografiya kabi fanlar bilan hamkorlik qiladi.

^{1,2} Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistent o'qituvchilari



Linguoculturologiya terminini ilk bora fanga olib kirgan olim Fransiyalik Emil Benveniste deb qaraladi. Ma'lumotlarga ko'ra, bu 20-asrning 70-yillariga to'g'ri keladi va bu borada yaratilgan eng mashhur ilmiy asar "Linguoculturologiya" deb nomlanib, u V.A.Maslova tomonidan yozilgan. Ammo yana ba'zi bir manbalar "U 20-asrning 90-yillarida madaniyatshunoslik va tilshunoslikni birlashtirishga bo'lgan sa'y-harakatlar natijasida vujudga kelganligi ta'kidlanadi. [5;260] Bu asar metodologik asoslar bilan ta'minlaydi va sohadagi joriy tendensiyalarni tasvirlaydi. [6;153] O'zbek tilshunosligida 2015-yilda linguokulturologiya sohasidagi ilk lug'at kitob D.Xudoyberganova tomonidan tuzilgan bo'lib, "Linguokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati" deb nomlanadi. [7;227]

Bu sohaning ahamiyatli jihatlaridan biri - u bir paytning o'zida bir nechta fanlar bilan uzviy bog'liq, birga rivojlanadi, bir-birini boyitadi, bir-birisiz natijaga erisha olmaydi. G.Yu.Kurbanova bu borada to'xtalar ekan linguokulturologiyaning etnolinguistika, sotsiolingvistika va etnopsixolingvistika bilan bo'lgan o'zaro bog'liqligiga ishora qiladi. "Etnolingvistika tarixiy ahamiyatga ega ma'lumotlarga tayanadigan zamonaviy fan, sotsiolingvistika biror bir xalqning tarixiy faktlarini bugungi kun materiallariga asoslanib aniqlashga intiladi. Linguokulturologiya esa tilga oid faktlarni ma'naviy-madaniy nuqtai nazardan tekshiradigan ham zamonaviy ham tarixiy xarakterga ega fandır. Etnopsixolingvistikaga kelsak, ma'lum xalq an'anasiga oid xulq-atvor nutqi bo'lib, o'z faoliyatida, og'zaki muloqotda qanday qilib o'zini ifodalashni o'rganadi, hamda og'zaki bo'lmagan hatti-harakatlardagi, nutq etikasidagi, madaniyatlarni muloqotdagi matnli bo'shliqlarda, ikki tillilik va ko'p tillilik holatlaridagi farqlarni tahlil qiladi va u turli xalqlar tomonidan nutq odobining o'ziga xos jihati sifatida talqin qilinadi." [8;263] Haqiqatdan ham, keltirilgan uch tarmoq va linguokulturologiya o'z rivojlanish yo'lida bir-biriga doimiy murojaat qiladi. Ammo yana terminologiya, mamlakatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, tarix kabi qator yo'nalishni ham keltirishimiz ham mumkin.

Linguokulturologiya nisbatan yosh, yangi soha bo'lishiga qaramay, u paydo bo'lishi bilan butun dunyo olimlari katta qiziqish bilan uni tadqiq etishga kirishib ketishdi va qator asarlar yarata boshlashdi. Ildizi V.F.Gumboltga borib taqaladigan ushbu fan bo'yicha V.V. Vorobyev, V.M. Shaklein, V.N. Telia, V.A. Maslova, Y. S. Stepanov, N.D. Arutyunova's, E.Sapir, B.L.Whorf, D. Lucy, P. Lee, Potebnya, V.I. Karasik, E.I. Sheygals f V.A. Buryakovskaya kabi jahon tilshunos olimlari qatorida A.Nurmonov, N.Mahmudov, N. Sayidrahimova, D.Khudoyberganova, Z.A.Salieva, A.Abduazizov, D.Ashurova, Sh.Safarov, O., Yusupov, A.Mamatov kabi o'zbek olimlar ham mavjud.

Yuqorida sanab o'tilgan mualliflar yaratgan asarlari orasida ilmiy izlanishning turli ko'rinishlari uchraydi. Ular orasida sohani tadqiq etishga bag'ishlangan lug'atlar ham salmoqli o'rinni egallaydi. Ana shunday ishlardan biri V.Kulpina va V.Tatarinovning Dictionary of Linguoculturology Terms as a Solution to the Current Research Problem nomli lug'atdir. Ushbu lug'at yuzasidan yozilgan sharhda mualliflar linguokulturologiya tushunchasiga "... til va madaniyatning o'zaro ta'sirini semiotik tizim sifatida va ayni paytda yagona yaxlit hodisa sifatida o'rganuvchi yo'nalish hisoblanadi."deya izoh bergan [9;1] Mualliflar fanning vazifasi to'g'risida "etnolingvistika yutuqlarini "sinxron madaniy-milliy ong va uning tili namoyishi oralig'ida umumlashtirishdir"- deb keltirib o'tadi. [10;2]

Endi ikki og'iz linguokulturologiya sohasi doirasida ko'p qo'llaniladigan terminlarni ko'rib chiqsak. Madaniyat kodi, kodlashtirish, steriotip, ramz, arxitip, realiya, lakuna, olam manzarasi, lisoniy manzara, milliy madaniyat, madaniy kompetensiya, madaniy meros, madaniy an'analar, madaniy jarayon, madaniy munosabat, mentalitet, marosim, sivilizatsiya kabi so'z va birikmalar fanimizda faol ishlatiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ko'rib o'tilayotgan linguokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi eng muhim, eng nozik munosabatlarni tadqiq etadi, ularga oid eng muhim tushunchalar shakllanadi, to'planadi, va shu orqali ma'lum xalq milliy madaniyat shakllanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.K.Baxronova. Olam manzarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi.- YURON-IQBOL” nashriyotim Toshkent-2021, 25b.
2. S.T.Pazledinova 3rd -International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany <https://conferencea.org> June 30th 2022 52 LINGVOKULTUROLOGIYA: ASOSIY TUSHUNCHALAR, 52-bet.
3. S.T.Pazledinova 3rd -International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany <https://conferencea.org> June 30th 2022 52 LINGVOKULTUROLOGIYA: ASOSIY TUSHUNCHALAR, 52-bet.
4. D.Z. Khayatova. Study of Linguoculturology in Linguistics \ Vol. 30 (2022): Miasto Przyszłości, 292-bet
5. Kurbanova G.Yu. Namangan Engineering-Construction Institute LINGUOCULTUROLOGY AND ITS RELATIONSHIP WITH ETHNOLINGUISTICS, SOCIOLINGUISTICS AND ETHNOPSYCHOLINGUISTICS Экономика и социум" №5(84) ч.1 2021, 260-bet
6. A. D. Bekbosinovna. SCIENCE THAT STUDYES THE INTERACTION RELATIONSHIPS OF LANGUAGE AND CULTURE, 153-bet.
7. M. Maxamatova. TILSHUNOSLIGIMIZDA LINGVOMADANIY KODLARNING O‘RGANILISHI HAQIDAGI MULOHAZALAR Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 22-bet.
8. Kurbanova G.Yu. Namangan Engineering-Construction Institute LINGUOCULTUROLOGY AND ITS RELATIONSHIP WITH ETHNOLINGUISTICS, SOCIOLINGUISTICS AND ETHNOPSYCHOLINGUISTICS Экономика и социум" №5 (84) ч.1 2021, 263-bet.
9. V. Kulpina, V.Tatarinov. Center for Open Access in Science ▪ <https://www.centerprode.com/ojsl.html> Open Journal for Studies in Linguistics, 2018, 1(1), 15-20. ISSN (Online) 2620-0678 ▪ <https://doi.org/10.32591/coas.ojsl.0101.02015k>, 1-bet.
10. V. Kulpina, V.Tatarinov. Center for Open Access in Science ▪ <https://www.centerprode.com/ojsl.html> Open Journal for Studies in Linguistics, 2018, 1(1), 15-20. ISSN (Online) 2620-0678 ▪ <https://doi.org/10.32591/coas.ojsl.0101.02015k>, 2-bet.

